

HY-9649 Toshkent - Qozon reysi haqida rasmiy ma'lumot

2023 9 January

2023-yilning 7-yanvar kuni HY9649/9650 Toshkent – Qozon – Toshkent yoʻnalishida parvoz qilayotgan Airbus A320 havo kemasining bitta dvigateli ishdan chiqqan. Havo kemasi muvoffaqiyatli tarzda nosoz dvigatel bilan Qozon aeroportiga qoʻngan. Bort sahnida 173ta yoʻlovchi (158ta katta, 13ta oʻsmir va 2ta chaqaloq) boʻlgan va qoʻnish jarayonida ularning hech biri zarar koʻrmagan. Yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish uchun Boeing767 havo kemasida HY8649/8650 qoʻshimcha reys tashkil etilgan. Hozirda havo kemasining dvigatelini ishdan chiqish sabablari oʻrganilmoqda. Qozon-Toshkent qaytish reysida esa 166 nafar yoʻlovchi manzilga yetkazilgan.

“Uzbekistan Airways” AJ axborot xizmati yoʻlovchilar xavfsizligi birinchi oʻrinda ekanligini eslatib oʻtadi. Yoʻlovchilar va kutib oluvchilarga yetkazilgan noqulayliklar uchun uzr soʻraymiz.